



## O'TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA QO'SHMA OTLARNING QO'LLANILISHI

*Maxmudjonova Moxigul*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya :** Mazkur maqolada qo'shma otlarning tuzilishi hamda o'zbekning eng qalami o'tkir ijodkorlaridan biri O'tkir Hoshimov hikoyalarida qo'shma otlarning qo'llanish o'rnlari lingvistik tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar :** morfologiya, ot so'z turkumi, qo'shma otlar, sodda otlar, juft otlar, takroriy otlar.

Inson shaxsining kamol topishida, tafakkurining rivojlanishida, tafakkur mahsulini nutq vositasida ifodalash salohiyatini egallashida asosiy vosita bo'lmish ona tili fani mакtabda yetakchi o'quv fanlaridan biri sanaladi. Zero, ona tili millat tafakkurini shakllantiradi, rivojlantiradi, takomillashtirib boradi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengil-mas kuch" asarida ona tilimizning ana shu jihatiga alohida urg'u bergen: "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir"<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda o'zbek tili siyosat darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zbek tilining yanada rivojlanishi va mavqeyiga alohida e'tibor qaratmoqda. Bunga misol qilib 2020-yilda qabul qilingan davlat tiliga bag'ishlangan farmonni aytib o'tishimiz mumkin bo'ladi.

<sup>1</sup> Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 176.



O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagি millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 20-oktyabr kuni “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon imzolandi. Ushbu Farmonning ijrosini taminlash maqsadida mamlakatimizda barcha sohalarda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi hurmati va mavqeyini oshirish bo‘yicha ko’plab amaliy ishlar bajarildi.

Til - millatning ruhi, uning ulkan boyligi, shu bois tilni umumbashariy qadriyatlar sirasiga kiritadilar. Til - aloqa vositasi.Uning kommunikativ belgilari insonlar o‘rtasidagi turli munosabatlarda, nutqiy vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Dunyoda millatning borligini ko’rsatadigan asosiy belgi ham tildir. Shunday ekan, yurtimizda mustaqillik sharofati bilan turli sohalarda erishilayotgan yutuqlarni tahlil va targ‘ib etishda o‘zbek tilining qudratidan foydalanish o‘rinli. Sababi ta’lim o‘zga tillarda olib boriladigan guruh talabalariga o‘zbek tilining boy merosini o‘rgatish, ilm-fan, san’at, madaniyat, tarix, sport sohasidagi yutuqlarimizni ko‘rsatish, til o‘rgatish asosida milliy va ma’naviy merosimiz hamda qadriyatlarimizga hurmat hissini shakillantirish — dolzarb masalalardan biri. Bu masalalarni tahlil etishda “O‘zbek tili” faniga doimo ehtiyoj seziladi.

Hozirgi kunda o‘quvchilar uchun egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi muhim hisoblanadi. Bugungi kundagi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini



shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir. Ayniqsa ona tili ta’limi o’quvchilarni jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo’lishlari uchun alohida ahamiyatga egadir. Chunki inson til vositasida atrofdagilarga o’zining mustaqil va shaxsiy fikrlari orqali ta’sir ko’rsatadi, yangi bilimlarni ham faqatgina til orqali o’zlashtiradi va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo’lib boradi..

Morfologiya so‘z shakllari haqidagi ta’limotdir. Morfologiya so‘z turkumlari va ularning grammatik shakllari bo‘yicha bahs yuritadi<sup>2</sup>. O‘zbek tilida 12 ta so‘z turkumi bor bo‘lib, ular quyidagicha tavsiflanadi:

- I. Mustaqil so‘z turkumlari:Ot, sifat, son, fe’l, olmosh, ravish
- II. Yordamchi so‘z turkumlari: Bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama
- III. Alovida olingan so‘zlar:Undov, taqlid, modal so‘zlar<sup>3</sup>

Ot — shaxs, narsa ma’nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirib, kim?, nima?, qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlardir. Otlar tuzilishiga ko‘ra 4 xil bo‘ladi: sodda otlar, qo‘shma otlar, juft otlar, takroriy otlar. Qo‘shma otlar — kompozitsiya usuli bilan yasalgan otlar. Birdan ortiq asosdan iborat bo‘ladi. Masalan: gultojixo‘roz, qorbo‘ron, otqulqoq kabi.

Quyida O‘tkir Hoshimovning o‘z hikoyalarida qo‘shma otlardan foydalanish mahoratiga diqqat qilamiz.

1. Eski *choyxona* buzilganida ularning hujrasidan ham nom-nishon qolmadi. ( Mahallaning “shayxi”)
2. – Nimaga xafa bo‘lmas ekanman? — *Kelinoyi* yana ham qattiqroq shang‘illay boshladi. ( Qanoat )
3. Bir hujraga yig‘ib qo‘ygan allaqancha *g‘o‘zapovani* opchiqibdi ( Ermon buvaning tilagi )
4. Ertasiga uni *jinnixonaga* olib ketishdi. ( Ermon buvaning tilagi )

<sup>2</sup> Nargiza Erkaboyeva, Xolida Abdusattorova. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami . Toshkent – 2023. “Yosh kuch”

<sup>3</sup> O‘zbek tili grammatikasi [2 j.li], 1j., T., 1975; Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1qism, T., 1980; Revzi na O. G., Revzin I. I., Lingvotipologicheskiye issledovaniya, vo‘p. 2, ch. 2, M., 1975.



5. Kuyovingiz kelsa, mana shu ***bilaguzugim*** sizniki. ( Mening acha xolam)
6. Surishtirsam, ***kasalxonaga*** tushibdi. Buyragi xasta ekan. ( Imon )
7. ***Achchiqtoshgayam*** g‘arg‘ara qildim. Qani bosilsa. ( Oltin baldoq )
8. ***Qo‘liqtayoqli*** askar jikkak chol bilan savdolashib sumak olyapti. ( Bozor )

O‘tkir Hoshimov badiiyatida qo‘shma otning barcha turlarini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

- 1) **Birinchi** qismi **omonimlik** xususiyatiga ega bo‘lgan qo‘shma otlar: qo‘liqtayoq
- 2) **Ikkinchisi** qismi **omonimlik** xususiyatiga ega bo‘lgan qo‘shma otlar: achchiqtosh
- 3) **Ikkala** qismi ham **omonimlik** xususiyatiga ega bo‘lgan qo‘shma otlar: oshqovoq.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘tkir Hoshimov nafaqat yaxshi yozuvchi, balki o‘zbek tilining til xususiyatlarini yaxshi bilgan ajoyib ijodkorlaridan biridir. Buni uning ko‘plab asarlaridan ham ko‘rishimiz mumkin. Uning asarlarini o‘qir ekanmiz, albatta, buning guvohi bo‘lamiz. Uning asarlarini tahlil qilish jarayonida ko‘plab, qiziqarli kashfiyotlarni uchratishimiz mumkin.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Nargiza Erkaboyeva, Xolida Abdusattorova. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami . Toshkent – 2023. “Yosh kuch”
2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 176.



3. O‘zbek tili grammatikasi [2 j.li], 1j., T., 1975; Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1qism, T., 1980; Revzi na O. G., Revzin I. I., Lingvotipologicheskiye issledovaniya, vo‘p. 2, ch. 2, M., 1975.
4. M.A.Arabboyeva Ona tili darslari orqali o’quvchilarning ijtimoiy emotsional – fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish. Замонавий таълим / современное образование, 2022, 12-сон.
5. Arabboyeva M. Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzARB pedagogik muammo sifatida. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil\_7-son.